

IKKI MILLATNING BOQIY OHANGGI

O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filiali

“umumiy kasbiy va social-gumanitar fanlar” kafedrası

“Musiqashunoslik” mutaxassisligi 3- kurs talabasi

Madrimova To'xtajon

Ilmiy rahbar: **Kamalova Gulmaryam Maksedullaevna**

Anotatsiya Ushbu maqolada O'zbekiston va Qoraqalpog'iston musiqa san'ati taraqqiyoti hamda bu jarayonda yirik san'at arbobi Qurbonbay Zaretdinovning ijodiy faoliyati keng tahlil qilinadi. Unda bastakor va dirijyorning musiqa ta'limi, teatr va filarmoniya jamoalaridagi samarali mehnati, opera va balet sahnasidagi tajribasi ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodining bebaho namunalaridan biri — “Háwjar” qo'shig'ining Zaretdinov tomonidan akapella shaklida qayta ishlanishi alohida e'tibor bilan o'rganiladi. Maqolada ushbu asarning musiqiy tuzilishi, legato, polifoniya, dinamika va ovoz partiyalarining o'ziga xos ijro xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qoraqalpoq xalqining “Háwjar” kuy-qo'shig'i bilan o'zbeklarning “Yor-yor” marosim qo'shiqlari o'rtasidagi badiiy, mazmuniy va marosimiy farqlar qiyosiy o'rganilib, ularning etnik-ma'naviy ildizlari yoritiladi. Tadqiqot yakunida xalq kuylarining jamiyat hayotidagi o'rni, zamonaviy ijrochilikdagi talqini va ma'naviy ahamiyati borasida muhim ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: musiqa san'ati, Qurbonbay Zaretdinov, Háwjar, akapella, Yor-yor, xalq ijodi, etnik meros, ijro uslubi

Аннотация В данной статье рассматривается развитие музыкального искусства Узбекистана и Каракалпакстана, а также творческая деятельность выдающегося деятеля искусства Курбанбая Заретдинова. Анализируется его музыкальное образование, плодотворная работа в театре и филармонии, опыт на сценах оперы и балета с научной точки зрения. Особое внимание уделено одному из бесценных примеров устного народного творчества — песне «Háwjar», переработанной

Заретдиновым в акапельной форме. В статье проводится музыкальный анализ произведения, рассматриваются особенности исполнения, включая легато, полифонию, динамику и партии голосов. Также сравнительно исследуются художественные, смысловые и ритуальные различия между каракалпакской песней «Háwjár» и узбекскими свадебными песнями «Yor-yor», раскрываются их этнические и духовные корни. В заключение делаются важные научные выводы о роли народных песен в общественной жизни, их интерпретации в современном исполнении и духовном значении.

Ключевые слова: музыкальное искусство, Курбанбай Заретдинов, Háwjár, акапелла, Yor-yor, народное творчество, этническое наследие, исполнительский стиль

Annotation This article examines the development of musical art in Uzbekistan and Karakalpakstan, as well as the creative activity of the prominent artist Kurbanbay Zaretdinov. It analyzes his musical education, productive work in theater and the philharmonic, and his experience on opera and ballet stages from a scholarly perspective. Special attention is given to one of the priceless examples of oral folk art — the song “Háwjár,” which was adapted by Zaretdinov into an a cappella format. The article provides a musical analysis of the piece, examining performance features such as legato, polyphony, dynamics, and voice parts. Additionally, it comparatively explores the artistic, semantic, and ritual differences between the Karakalpak song “Háwjár” and the Uzbek wedding songs “Yor-yor,” highlighting their ethnic and spiritual roots. The study concludes with significant scholarly insights into the role of folk songs in social life, their interpretation in contemporary performance, and their spiritual significance.

Keywords: musical art, Kurbanbay Zaretdinov, Háwjár, a cappella, Yor-yor, folk creativity, ethnic heritage, performance style

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston hududida musiqa san’ati boy tarixiy ildizlarga ega. Bu yerda yuzaga kelgan kuy va qo‘shiqlar, ashula va dostonlar xalqimizning o‘ziga xos madaniyatini avloddan avlodga yetkazib kelmoqda. Mustaqillik yillarida musiqa san’ati

yanada rivojlanib, xalqimizning milliy o'zligini anglashida, yosh avlodni vatanparvarlik, go'zallik va ezgulikka chorlashda muhim o'rin tutmoqda.

Ana shunday yuksak va betakror san'at maydonida ko'plab iste'dodli bastakorlar, dirijyorlar va ijrochilar yetishib chiqqan. Ularning ijodiy faoliyati nafaqat milliy musiqa merosini boyitib, balki uni jahon miqyosida tanitishga xizmat qilmoqda. Shunday san'at arboblardan biri – o'z ijodi hayoti davomida Qoraqalpog'iston musiqa madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan, xalqaro miqyosda ham yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan yirik dirijyor va bastakordir. Qurbonbay Zaretdinov (1951-yilda tug'ilgan) — O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Berdak nomidagi davlat mukofoti sovrindori. U 1975-yilda Toshkent davlat konservatoriyasini xor dirijyorligi mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. Ijodiy faoliyatini 1968–1970-yillarda Qoraqalpoq davlat musiqali teatrida xor artisti sifatida boshlagan, so'ngra Nukus davlat san'at kollejida o'qituvchi va direktor o'rinbosari, Qoraqalpoq davlat filarmoniyasida dirijyor, Berdak nomidagi teatrd bosh xormeyster va bosh dirijyor sifatida faoliyat yuritgan.

1992–2005-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Boshqaruvchilar uyushmasi tashkil etilishida ishtirok etgan. 2005-yildan beri Berdak nomidagi teatrning bosh dirijyori sifatida faol. Uning mehnati yuqori baholanib, 1991-yilda “Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi”, 1998-yilda Berdak nomidagi davlat mukofoti sovrindori, 2000-yilda “O'zbekiston san'at arbobi” unvonlariga sazovor bo'lgan. Ijodida eng yorqin asarlaridan “To'maris”, “Dayiqiz”, “Bahor”, “Bulbul”, “Ustoz”, “Begzod fojiasi”, “Nazlimxon suluvi” kabi asarlar muallifligi alohida o'rin tutadi. Shuningdek, “Azhiniyoz” operasi, “Ayjamal” baleti, “Maisaraning hiylasi”, “Aleko” operalari hamda ko'plab musiqali spektakllarda dirijyor sifatida ishtirok etib, tomoshabinlarning yuksak e'tirofiga sazovor bo'lgan. Qurbonbay Zaretdinovning asarlari orasida eng mungli eng tasirli qayta ishlangan akapela qo'shiqlardan biri “Hawjar” dir— qoraqalpoq xalqining eng go'zal va ma'noli xalq qo'shiqlaridan biri bo'lib, unda qiz uzatiladigan paytda aytiladigan qayguli, ayriliq va sog'inch kabi chuqur tuyg'ular kuylanadi. Ushbu qo'shiq xalqimizning eng Qadim iy urf-odatlaridan biri — **yor-yor marosimi** bilan chambarchas bog'liqdir. Qoraqalpoq xalq qo'shiqlari o'zining betakror ohanglari, lirik va urf-odatlari bilan boshqa

hududlar musiqasidan ajralib turadi. Ular ko‘pincha xalq hayoti, tabiat go‘zalligi, muhabbat va mehr-muruvvat mavzularini o‘zida aks ettiradi. Qoraqalpoq musiqiy merosi asosan maqomiy, xalq qo‘shiqlari va epik kuylarga bo‘linadi. Bunda ijrochilar qo‘shiqni o‘z his-tuyg‘ulari bilan jonli ifodalaydi, kuylarda ko‘p hollarda improvizatsiya, ya’ni erkin yangraydigan ohang va so‘zlashuv shakllari uchraydi. Xozirga kelib Respublikamizning turli viloyatlarida ham ularning o‘ziga xos tarzda ijrolari mavjud. Yor-yor qo‘shiqlarida esa xalqona so‘zning ifodalanishi, mahalliy farqlanishi, misralarda aks etgan sheva unsurlari orqali ko‘zga tashlanadi. Yor-yor qo‘shiqlarida insonning ichki kechinmalari, hayajon va histuyg‘ularini o‘ziga xos tarzda ifodalanishi real hayotiy jarayonlar va sheva so‘zlarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi bilan bog‘liqdir. Yor-yor marosimlari turli viloyatlarda o‘ziga xos uslubda, o‘sha hududning an‘anasi, tili, kiyim-kechagi va kuy ohanglari orqali ajralib turadi. Masalanda Xorazm xalqining madaniy merosida to‘y marosimlaridan biri yor yor alohida o‘rin tutadi. Ularning eng muhim qismlaridan biri— kelin bo‘layotgan qizni turmushga chiqish arafasida kuzatish marosimi bo‘lib, Mazkur marosimda yuqorida aytib o‘tganimizdek xalq og‘zaki ijodidan biri bo‘lan **yor-yor qo‘shiqlari** muhim rol o‘ynaydi. Yaniy urf odati va yor yor matninning manosi bilan farqlaniladi kelinning ona uyida o‘tadigan so‘nggi kechasi bo‘lib, bu kecha qizning bolalik davri bilan xayrlashuvi, yangi hayot bosqichiga qadam qo‘yish ramzi sifatida qabul qilinadi. Marosim vaqtida kelin xona o‘rtasida o‘tiradi, uning boshi ustidan katta oq mato tutib turiladi. Bu oq mato — **poklik, baxt va yangi hayot** ramzidir. Marosimning yana bir o‘ziga xos jihati — oq matoga turli rangdagi mato bo‘laklarining tikilishidir. Odatda 5–6 xil rangdagi parcha tanlanadi. Bu ranglar hayotning turli holatlarini — shodlik, qayg‘u, sinov, sabr va muhabbatni anglatadi. Xalq ishonchiga ko‘ra, “qanday qilib har xil mato bo‘laklari bir butun oq matoga tikilsa, inson ham hayotdagi quvonch va sinovlar orasida oila bilan bir butun bo‘lib yashasin”, degan ezgu ma’no ifodalanadi asosan ayollar — ona, opa, dugona va qarindoshlar, **yor-yor qo‘shiqlarini** ijro etadilar. Matniga nazar soladigan bo‘lsak,

Avval boshlab Xudoni yod etaylik, yor yor.

Payg‘ambarlar ruhini shod etaylik, yor yor.

Paygʻambarning qizini Ali olgan, yor yor.

Qiz berib, kelin olmoq shundan qolgan, yor yor.

Davlatning borida toʻy qila bil, yor yor.

Ostonasi tillodan uy qila bil, yor yor.

Yor-yor aytganning boshi ya Bismillo, yor yor.

Domullolar oʻqiydi kalomullo, yor yor.

Manosiga keladigan boʻlsak Har bir ezgu ish — ayniqsa nikoh va toʻy — Allohni yod etish, Paygʻambarlar ruhiga duo qilish bilan boshlanishi kerakligi taʼkidlanadi. Bu satrlar xalqning eʼtiqodi, diniy qadriyatga hurmati va toʻy marosimining maʼnaviy pokligini aks ettiradi. “Paygʻambarning qizini Ali olgan” degani — Hazrat Muhammad (s.a.v.) qizi Fotima va Hazrat Alining nikohini eslatadi. Bu satr xalq orasida nikoh muqaddasligi, oila qurish sunnat ekanini eslatish uchun keltirilgan.

“Soʻnggi satr” — “Qiz berib, kelin olmoq shundan qolgan” — bu anʼana oʻsha ulugʻ misoldan kelib chiqqanini, yaʼni toʻy marosimi islomiy ildizga ega ekanini bildiradi. Kelgusi qatorda xalq orasidagi saxovat, toʻkinlik va baraka tushunchasini ifodalaniladi. “Davlatning borida toʻy qil” — yaʼni inson borida quvonchini boshqalar bilan baham koʻrsin “Ostonasi tillodan uy” — ramziy maʼno: baxtli, moʻl-koʻl, nurli oila qurish orzusi.

Endilikda esa qoraqalpoq hawjari bilan yor yorni farqini solishtirib koʻrsak

Sıldır-sıldır qamısqa,

Kirsem-şıqsam şaşımdı,

Sırgam tüsti, hawjar.

Sıypar esik, hawjar.

Sırlaspagan jat jerge,

Qayın atamnıń esigi,

Şegim tüsti, hawjar.

Altın esik, hawjar.

Öz ekemniń esigi,

Terbeledi terinde,

Jipek esik, hawjar.

Altın besik, hawjar Jipek esik, hawjar.

Sıldır-sıldır kamsıqa, sirgam tüsti hawjar.

Ma'nosi: Qamishlar shildirab turibdi, sirgam tushdi, Bu satrda "qamış" tabiat uyg'onishini, to'y paytidagi hayajonni bildiradi. "Sirga" esa kelinning bezagi, yangi hayotining belgisi. Hech sirlashmagan yot yurtidan joyim tushdi, Bu yerda kelin o'zining yangi oilaga ketyotganini, begona joyda endi yangi hayot boshlayotganini ifodalaydi. Ota uyimning eshigi ipakdek yumshoqligini Kelin o'z ota uyini sog'inib eslaydi. "Jipek esik" — bu mehr, tinchlik va bolalik xotiralari bilan to'la maskan

Uyga kirib-chiqsam, sochimni silaydigan eshik, Bu satrda ota-onaning mehr qo'llari timsoli bor. Kelin shunday mehrli, g'amxo'r oilada ulg'ayganini ifodalaydi. Qayin otamning eshigi oltinday eshik, Bu yerda kelin yangi oilasini ulug'laydi. uyimizning to'rida beshik tebranadi, Bu satr hayot davomiyligini bildiradi. "Altın besik" — farzand, baxtli oila va nasl davomining ramzidir. Bu satrlarni tinglar ekanmiz bir biridan yor yor bilan hawjarni. Farqini anglaymiz. Shuni aytish keraki Ilgari yangalar tomonidan yoki Yoshi katta buvalarimiz tomonidan aytilar edi xozirgi davirga kelib Hawjar, yor yor koplal qo'shiqchilar tomonidan yani to'yi kuni o'z qiziga kuylab kelinayotgalarini guvohi bo'lamiz buni qanchalik to'g'ri desa bo'ladi?

Qurbonbay Zaretdinov qayta ishlangan so'zi Marhobo tegishli, Tuzilishi esa Akapeilo yani Solo yakaxon ijro va Xor ijrosi yani Qaytarilishi va Yakuniy qisimlarini cho'zilish, ijro qilishda tuzilgan.

Soprano I (baland ayollar ovozi)

Soprano II (o'rta ayollar ovozi)

Alto (past ayollar ovozi)

Tenor (erkaklarning balandroq ovozi)

Bas (erkaklarning eng past ovozi)

Ba'zi joylarda solo ijrochi (yakkaxon) qo'shiqni boshlaydi.

Ijro usullarida esa Legato (bog‘lab kuylash) – mungli, cho‘zilgan ohanglar. Piano (p), pianissimo (pp) – sokin, yurakka yetadigan darajada past ovozda. Mezzoforte (mf) va crescendo – dramatik joylarda ovoz asta kuchayib boradi. Shuningdek ayrim joylarda turli ovozlar bir-biriga qarshi yoki ustma-ust kuylab, avj qismini xosil qilinadi. Asar fa-dies minor (F# minor) tonalligida yozilgan. Asarning Asosiy qismi xor ovozlari qo‘shilib, “Háwjar” so‘zi qaytariladi. Dramatik qismi esa – “Ji’lama qiz, ji’lama” iborasi orqali kuchli hissiyot beriladi. Yakuniy qismi – sokinlashish, ritardando va pianissimo bilan tugaydi. “Háwjar” – bu oddiy qo‘shiq emas, balki xalqning dardu hasratini, qizning aytolmagan hasratidir. Shu sababli kuyning kayfiyati mumtoz lirizm va mungli dramatism bilan boyitilgan.

Foydalangan adabiyotlar

1. Kamalova G. JAMIL CHARSHEMOV TÍN "POPURRI" SHÍGARMASÍNÍN ÓZGESHELIGI //BecThnK my3bikn n ckycctba. - 2024. - T. 1.- Ne. 4.- C 52-57.
2. Kamalova, G. & Dauletbaeva, G. (2024). DUWTAR SAZ ÁSBABÍN ZAMANAGÓYLESTIRIWDÍN ÁHMIYETI. BecThnK My3bIKn n MCKyCCTBa, 1(4), 89-94. извлечено от <https://science.uzdknf.uz/index.php/science/article/view/231>
3. Dauletbaeva G., Kamalova G. A SHINING STAR //Modern Science and Research. - 2023.- T.2.- Ne. 10.- C. 880-884
4. Kamalova G. JAMIL CHARSHEMOV TÍN "POPURRI" SHÍGARMASÍNÍN ÓZGESHELIGI //BeCThnK My3bIkn n nckycctBa. - 2024.- T. 1.- Ne. 4.- C. 52-57.
5. Kamalova, G., & Dauletbaeva, G. (2024). DUWTAR SAZ ÁSBABÍN ZAMANAGÓYLESTIRIWDÍN ÁHMIYETI. BecThnK My3bIKn n nckyCCTBa, 1 (4), 89-94. извлечено от <https://science.uzdknf.uz/index.php/science/article/view/231>
6. Kamalova G. QÁLEMI ÓTKIR KOMPOZITOR (D. Djańabaeva dóretiwshilik joli) //BecThnK my3bikn n nckycctba. - 2023. - T. 1.- Ne. 2. - C. 37-39,



7. Kamalova G.M. Kompozitor Dariko Djanabaeva Nókis, "Ilimpaz". 2023.-- 86-bet
Dauletbaeva G., Kamalova G. A SHINING STAR//Modern Science and Research. - 2023. - T. 2.- Ne. 10.- C. 880-884